

**MUHAMMAD YUSUFNING SHE’RLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR
 (“Menga bering” she’ri misolida)**

Matluba MADRAXIMOVA,
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878077>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning o‘z she’riyatida onomastik birliklardan, ya’ni she’rlarning badiiy quvvatini oshiruvchi asosiy vositalardan foydalanish mahorati “Menga bering” she’ri misolida ko‘rib chiqiladi. Onomastik birliklar turlari va she’rning asosiy g‘o-yasini yetkazib berishda ushbu birliklarning ahamiyati haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: *onomastika, antroponimlar, zoonimlar, toponimlar, onomastik birlik.*

Bugungi kunda tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan, lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik, matn lingvistikasi kabi yo‘nalishlar badiiy matnni chuqurroq tahlil qilish, undagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy konnotatsiyalarni anglashga xizmat qilmoqda. Ushbu izlanishlar jarayonida tilshunoslikka onomastika – ya’ni nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi va semantikasi bilan shug‘ullanuvchi fan sohasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki badiiy matnda ismlar, joy nomlari, tarixiy shaxslar nomlari yoki toponim va antroponimlar nafaqat real voqelikni ifodalaydi, balki muallifning estetik maqsadini, davr ruhini va milliy ongini aks ettiruvchi vosita sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli onomastik birliklarning tadqiqi hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Onomastika - yunoncha *onomastike* - so‘zidan olingan bo‘lib "nom qo‘yish san'ati" degan ma'noni bildiradi [6.8]. “Onomastika til onomastika birliklarini tashkil qiluvchi har qanday atoqli otni lingvistik va sotsiolingvistik aspektda tadqiq qiladi”[2.9]. Taniqli olim E.Begmatov o‘zining “Onomastika” nomli qo‘llanmasida o‘zbek ismlari haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. “Olamda eng ulkan predmetlardan tortib ko‘zga ko‘rinmas zarrachalarning ham o‘z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo‘lish mumkin emas, chunki nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir”[1.64]. Bu borada tilshunos I.Mirzayevning bergan quyidagi ta’rifi e’tirofga loyiq “Onomastika- milliy qadriyatlarni, aniq dalillar asosida o‘rganuvchi, ota-bobolar o‘tmishi, milliy va diniy qarashlari, biz yashab turgan makon va zamon haqidagi chuqur tasavvur beruvchi fan, o‘zlikni anglash quroli bo‘lgan o‘ta murakkab va keng tarmoqli hodisa”[3.7]. Haqiqatdan ham bu soha o‘zida juda qimmatli

ma'lumotlarni asrovchi, xalqning milliy o'zligi, tarixi, madaniyati va urf-odatlarini va adabiyotini bir-biriga bog'liq jihatlarini ko'rsatuvchi birliklardir.

Onomastik birliklar (ya'ni ismlar, joy nomlari, hayvon nomlari va suv havzalari nomlari va boshqalar)dan foydalanish she'rga obrazlilik, jonlilik, va individual yondashuv olib kiradi. Atoqli shoir Muhammad Yusuf o'z she'rlarida onomastik birliklardan mahorat bilan qo'llagan ijodkorlardan biridir. Quyida Muhammad Yusufning “Menga bering” nomli she'rida qo'llangan onomastik birliklarning badiiy xususiyatlaridan ayrim ma'lumotlar keltiriladi.

She'r 14 banddan iborat va ularning 10 tasida onomastik birliklardan foydalanilgan. Ular onomastik birliklarning 3 turiga mansub: antroponimlar (shaxs nomlari), zoonim (hayvon nomlari), toponimlar (geografik joy nomlari).

Ne baxt besh yuz yildan beri,
Boqiydir bir bobom she'ri,
Behzod chizgan suratini
Menga bering, menga bering. [4.186]

Behzod- Kamoliddin Behzod - buyuk miniatyurachi musavvir, Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori. Hirot miniatyura maktabi asoschisi; muzahhiblar yetakchisi; ustози. [7.293]

Qarang, Abu Rayhon kelur,
Xasta ko'ngil vayron kelur,
Sinoning tibbiyotini
Menga bering, menga bering. [4.186]

Abu Rayhon- Abu Rayhon Beruniy - ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan. O'z zamonasining barcha fanlarini, birinchi navbatda falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (mat.), ilohiyot, ma'dansunoslik fanlarini puxta egallagan. [7.263]

Sino - Abu Ali Ibn Sino - jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim. G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur. [7.10]

Temurnimas, Chingiznimas,
Osmon to'la yulduznimas,
Ulug'bekning niyatini
Menga bering, menga bering. [4.186]

Temur - o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. [7.420]

Chingiz - Mo'g'ullar davlati asoschisi, sarkarda. Mo'g'ul qabilalari ittifoqi - tayjuitlar sardori Yasugay bahodirning O'elun Fujin (xotun) dan tug'ilgan to'ng'ich farzandi. [7.106]

Ulug‘bek - buyuk o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Shohruhning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi. 1409- 1449- yillarda Mavorounnahr hokimi bo‘lgan. [7.73]

Hinduda musofir o‘sha,
Hirotdagi Bobur o‘sha,
G‘urbatdagi Furqatini
Menga bering, menga bering.[4.186]

Bobur - shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, mahoratli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi, Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo [5.25]. Bu she‘rda shoirning vatanidan ayro tushishi va Hind diyorida musofirligiga ishora qilingan.

Bobur antroponimi bilan birga **Hind** va **Hirotdagi** toponimlari ham qo‘llangan.

Furqat - taraqqiyparvar shoir, mutafakkir, publitsist. Furqat Qo‘qonda tavallud topgan bo‘lsa-da, taqdir taqozosi bilan 1893-yilda vatanidan yiroqda Yorkentda yashab o‘sha yerda vafot etgan [5.104]. She‘rda g‘urbatdagi Furqatini deyilgani sababi esa, ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, u atayin qaytib kelmaydigan qilib o‘z yurtidan chiqarib yuboriladi. Istanbulda yozgan “Sabog‘a xitob” she‘riy maktubida Vatan ishtiyoqi, do‘stlar sog‘inchi, g‘urbat azoblari va yolg‘izlik motivlari birinchi o‘ringa chiqqan.

Laylilarni vafosini
Majnunlarin nidosini
Alpomishin kelbatini
Menga bering, menga bering.[4.186]

Layli va Majnun - Layli (Laylo) va Majnun nomlari asosan muhabbat mavzusidagi she‘riy matnlarda qo‘llanib, allyuziyani yuzaga keltirishda vosita bo‘lgan. Bunda “Layli va Majnun” dostonidagi ikki oshiqning muhabbati tasvirlangan o‘rinlarga yoki dostonning muayyan syujetiga ishora qilish orqali intertekstuallik hosil qilingan. ayni vaqtda chuqur mazmunli jummalarda ifodalanishiga xizmat qilgan [5.55].

Osmonlarga uchgim kelur,
Shoh Mashrabni quchgim kelur.
Go‘ro‘g‘lining G‘irotini
Menga bering, menga bering. [4.186]

Mashrab- O‘zbek mumtoz shoiri va mutafakkiri Boborahim Mulla Valiy o‘g‘lining tahallusi. Mashrab tasavvufiy yo‘nalishidagi, shuningdek chuqur ijtimoiy mazmun kasb etgan, inson ma‘naviy kamolotini ulug‘lovchi, Allohga va insonga

bo‘lgan teran muhabbatni vasf etuvchi she‘rlari bilan o‘zbek adabiyoti tarixidan favqulodda iste’dodli shoir sifatida o‘rin olgan [5.63].

Alpomish - "Alpomish" nomli mashhur o‘zbek xalq qahramonlik dostoni bosh qahramoni. Alpomish dosstonda mard va oriyatli, g‘ururi baland, o‘z elining haqiqiy o‘g‘loni sifatida tasvirlangan. Alpomish asl ismi Hakimbek bo‘lib, 14 yoshida otgan o‘qi Asqar tog‘ning bir cho‘qqisini yulib olgani uchun 99 alp qatoridan joy olgan va unga Alpomish(alp "polvon " ma'nosini bildiradi) nomi berilgan [5.17]

Go‘ro‘g‘li - Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan dostonlar turkumidagi bosh obraz. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da Go‘ro‘g‘li ga quyidagicha ta’rif berilgan: Go‘ro‘g‘li turkman va o‘zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o‘z xalqi, vatani uvhun qayg‘uruvchi va uni dushmanlardan himoya qiluvchi yengilmas bahodir, ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan murabbiy sifatida tasvirlangan. Go‘ro‘g‘li nomi qo‘llangan joyda albatta uning doimiy yo‘ldoshi G‘irot zoonimi ham keltirilgan. **G‘irot** — “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi afsonaviy ot obrazi [7.526].

O‘tgan kunim, ketgan kunim,

O‘z boshimga yetgan kunim.

Qodiriyning pok yodidni

Menga bering, menga bering. [4.186]

Qodiriy- XX asr O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi, millat ruhini yorqin aks ettirgan “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlarining muallifi [5.119]. Abdulla Qodiriy va “O‘tgan kunlar” birliklarini bir-biridan ayro ifodalash mumkin emas. She‘rda Qodiriyning o‘z asarlari orqali, jumladan, “O‘tgan kunlar” romanida ham yurt va xalq taqdiri, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolar ham mahorat bilan yoritib bera olganligiga, lekin bu oxir-oqibat Qodiriy uchun ayanchli oqibatlarga olib kelganligiga ishora bor.

Qayda bu kun Usmon Nosir,

Bag‘ri kukun Usmon Nosir.

Shoirlarning sherzodini

Menga bering, menga bering. [4.186]

Usmon Nosir - mashhur o‘zbek shoiri. Lirik she‘rlari, dostonlari, sahna asarlari va yuksak badiiy tarjimalari bilan o‘zbek adabiyotida favqulodda iste’dod egasi sifatida nom qoldirgan adib [5.99]. Bilamizki, Usmon Nosir qatag‘on qurbonlaridan biri bo‘lgan, shuning uchun ham she‘rda “bag‘ri kukun” deya keltiriladi.

Yerni ushlab to‘xtaman,

Yassaviy kim ko‘rsataman.

Vatan adabiyotini

Menga bering, menga bering. [4.187]

Yassaviy - tasavvufning mashhur namoyandalaridan biri, shoir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she‘riyatdan ham foydalangan [7.99].

Yuqoridagi keltirilgan misollar orqali shuni ta‘kidlash joizki, Muhammad Yusuf “Menga bering” she‘rida mahorat bilan qo‘llangan vatan tarixi va buyuk ajdodlar antroponimlari orqali she‘rning badiiy quvvatini yanayam oshirgan. Shu bilan birga, shoir ijodida qo‘llangan onomastik birliklar, ayniqsa, antroponimlarning tadqiqi shu davrdagi tarixiy voqelik va shart-sharoit hamda milliy an‘analarni o‘zida aks ettiruvchi manbalarni o‘rganish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov.E. O‘zbek ismlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998
2. Begmetov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan,2013
3. Mirzayev I. Onomastika tadqiqiga doir ayrim masalalar/Onomastika. Ilmiy maqolalar to‘plami. 1-chiqishi. – Samarqand: 2013
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Pharos ambition, 2022.
5. Xudoyberganova D., Andaniyazova D.O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016
6. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand:2011
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
9. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
10. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
11. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
12. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
13. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).